

**MAMALAKATIMIZDA SUD HOKIMIYATINI SAMARALI VA
IZCHIL FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MAQSADIDA SUD
ISHLARINI YURITISH PRINSIPLARINING MOHIYATI**

Abdusamadov Dilmurod Farxod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti xodimi

abdusamadov033@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida Sud hokimiyati fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda adolatlilik prinsipiga qay darajada amal qilishi. Sud organlarining faoliyati, ularning vazifalari hamda fuqarolarni qanday tartibda murojaat etishlari, fuqarolar tinchligi va totuvligi, qonun ustuvorligini ta'minlashga, inson huquqlari va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, kodekslar, konstitutsiya, Oliy Sud, Plenum, demokratiya, adolat, insonparvarlik, sud hujjatlarining majburiyligi, qonun va sud oldida tenglik, sud himoyasida bo'lish huquqi.

**СУТЬ ПРИНЦИПОВ СУДОПРОИЗВОДСТВА С ЦЕЛЬЮ
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ И ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУДЕБНОЙ ВЛАСТИ В НАШЕЙ СТРАНЕ.**

Абдусаматов Дилмурод Фарходович

Сотрудник Ташкентского государственного
юридического университета

abdusamadov033@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается, в какой степени судебная власть в Республике Узбекистан придерживается принципа справедливости при защите интересов граждан. Представляется информация о деятельности судебных органов, их задачах и порядке обращения граждан, обеспечении мира и согласия среди граждан,

законности, защите прав и свобод человека, а также прав и законных интересов предприятий, учреждений и организаций.

Ключевые слова: Судебная система, кодексы, конституция, Верховный суд, Пленум, демократия, правосудие, гуманитарное, обязательность судебных документов, равенство перед законом и судом, право на судебную защиту.

**THE ESSENCE OF THE PRINCIPLES OF LEGAL
PROCEEDINGS AIMED AT ENSURING THE EFFECTIVE AND
CONSISTENT FUNCTIONING OF THE JUDICIARY IN OUR COUNTRY.**

Abdusamadov Dilmurod Farxodovich

Employee of Tashkent State University of Law

abdusamadov033@gmail.com

Abstract: *In the article, the extent to which the Judiciary in the Republic of Uzbekistan adheres to the principle of justice in protecting the interests of citizens. Information is provided on the activities of judicial bodies, their tasks and the procedure for addressing citizens, ensuring peace and harmony of citizens, the rule of law, protecting human rights and freedoms, the rights and legal interests of enterprises, institutions and organizations.*

Keywords: *Judicial system, codes, constitution, Supreme Court, Plenum, democracy, justice, humanitarian, the binding nature of court documents, equality before the law and the court, the right to judicial protection.*

Kirish

Mamlakatimizda sud hokimiyati organlarining samarali va izchil faoliyat yuritishini, bu borada sudyalarning yuqori kasb malakasi, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarash va yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo'lishini ta'minlash – ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning muhim omili sifatida yondoshilmoqda. Shu o'rinda aytish

lozimki, odil sudlov – davlat faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri, fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish sud yordamida himoya qilish, ularni ijtimoiy himoyalashning maxsus yuridik shaklidir.

Sud hokimiyati – sud tomonidan fuqarolik, iqtisodiy, ma‘muriy va jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish, huquqiy nizolarni hal etish orqali namoyon bo‘ladi. Bunda sud fuqarolar, korxona, muassasa va tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlariga ta’sir etish; jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish, jinoyat ishi bo‘yicha jazo tayinlash; shaxsni sud tartibida ayrim huquqlardan, mulkdan, shaxsiy huquq va erkinliklardan mahrum etish yoki ularni cheklash; adolatni ta’minlash va o‘rni kelganda shaxsning aybsizligini isbotlab, hukm chiqarish kabi faoliyatida qonunni qo‘llash bilan shug‘ullanadi. Aslida odil sudlov – insoniyat ma’naviyati va madaniyati xazinasining ulug‘ ne’mati, benazir yutug‘i hamda ma’rifiy qadriyatidir. Shunday yuksak tavsif barobarida odil sudlov – davlatning fuqarolar huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini, jamiyat siyosiy va iqtisodiy negizlarini himoyalashga yo‘naltirilgan huquqiy siyosatining mujassam ifodasi va bevosita amalidir.

Mamlakatimizda amalaga oshirilayotgan islohotlarning tub maqsadi «Inson qadri uchun», «Davlat – inson uchun» degan ezgu g‘oyalarni hayotga tatbiq etishdan iborat. O‘zbekistonda odil sudlov tamoillarini yanada rivojlantirishga talab oshib bormoqda. Fuqarolarning erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanligi, fuqarolarning sud orqali himoyalalanishga bo‘lgan huquqlari, odil sudlov tamoyillari, sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i ekanligi, sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo‘ysunishi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi qator fundamental umum e’tirof etilgan xalqaro huquq normalari o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar va metodlar

Maqolani tayyorlashda internet tarmog'idagi xalqaro jurnal manbaalari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Binobarin, sud tizimi organlari xodimlariga quyidagilar kirishi mumkin: yuridik ma'lumot olgan odamlar, huquqshunoslar, huquq sohasidagi olimlar, ushbu sohadagi amaliyot mutaxasislari, sudyalari oliy maktabi bitiruvchilar. Huquqshunos mamlakatimizda qanday sohada faoliyat olib bormasin, yakunida inson bilan, uning muammolari va murojaatlari bilan ishlashiga, shularga to'qnash kelishiga to'g'ri keladi. Sudya ham, prokuror va advokat ham, notarial idora yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini rasmiylashtirish muassasasi hodimi ham, tergovchi yoki qamoqxonaga nazoratchisi ham yoki boshqa organ xodimlarining mijozi bevosida jonli odamlar, o'zi singari insonlar bo'ladi. Shuning uchun odamlar sud organlariga murojaat qilishar ekan, birortasining tashvishi, ular tushib qolgan holat boshqalarnikiga umuman o'xshamaydi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy –huquqiy tahlil, statistic va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijasi

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish borasidagi keng ko'lamli islohotlar tizimida O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati uning huquqiy maqomi va faoliyatini demokratlashtirish, uning ma'suliyati va mustaqilligini kuchaytirish markaziy o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida odil sudlovni faqatgina sud tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi hamda ijro etuvchi

hokimiyatlardan siyosiy partiyalardan hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi bu ham fuqarolar manfaatlarini himoya qilinishi, sud hokimiyatining yanada adolatli bo'lishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, sud hokimiyatining faoliyati qonun bilan tartibga solinadi. Sud hokimiyati faoliyat jarayonida faqatgina qonunga bo'ysunadi. O'zbekiston mustaqilligi davlat hokimiyatining jahon tajribasida qo'llab kelingan prinsiplarni amalga kiritish natijasida konstitutsiyada sudni totalitar tuzum, undagi hukmron partiya manfaatiga xizmat qiluvchi, huquqiy davlatning muhim vositasiga aylantirish uchun imkoniyat vujudga keldi, hamda Konstitutsiyada mustahkamlandi.

Sud hokimiyatidan dastlab har qanday demokratik chiqish hamda harakatlarni jazolash sifatida foydalanilgan. Islohotlar doirasida olib borilgan ishlar natijasida sudlarning huquqiy asoslari takomillashda hamda bir qator qonunlar yangi tahrirda qabul qilindi.

Hozirgi kunda sud huquq tizimini isloh qilish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Yangi O'zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi Konstitutsiyasida mamlakat aholisi, ularning huquq va erkinliklari yana bir jabhada mustahkamlandi, zero ushbu yangi taxrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 55 – moddasida: «Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari hamda harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi» deb belgilangan.

Bu bir tomondan, sudlarga fuqarolar murojaatlarini ko‘rish mas’uliyatini yuklasa, ikkinchi tomondan, sudni fuqaro huquqlari va erkinliklarining eng kuchli, samarali vositasi, kafolati sifatida namoyon qila olishini ko‘rsatadi.

Bu bilan sudlar fuqarolar huquqlarini davlatdanham himoya qiladi. Shunga alohida e’tibor berish kerakki, sudlar nafaqat qonunchilikni ta’minlaydi, ular qonun yaratishda, qonunchilik jarayonida ham faol qatnashadi. 2021-yil 28-iyulda yangi taxrirda O‘RQ-703-son qonun bilan qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovi qonuniylik, sudyalarning mustaqilligi, sud hujjatlarining majburiyligi, qonun va sud oldidagi tenglik, sud ishlarini yuritishning oshkoraligi, sud ishlari yuritiladigan til va boshqa bir qator tamoyillar mustahkamlangan. Shuningdek, islohotlar jarayonida sudlar ixtisoslashuvi takomillashtirildi.

Sud tizimi xodimlari uchun quyidagi odob –axloqiga oid tamoyillar bir necha xalqaro hujjatlarda belgilangan. Ushbu xalqaro hujjarlar namuna sifatida sud faoliyatidagi prinsiplarni mustaxkamlaydi:

-«Sudlov organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish» bo‘yicha 1985 yildagi 7-kongressi, BMT Bosh Assemblyasining 40/32 va 40/146 –sonli rezolyutsiyalari bilan ma’qullangan. (Oliy Majlisning 1997 yil 30 avgustdagi 507-I sonli qarori bilan ma’qullangan);

-«Jinoyat qurbonlari uchun va hokimiyatni suiste’mol qilishga qarshi odil sudlovning asosiy tamoyillari to‘g‘risida» Deklaratsiya, BMT 40/34 Rezolusiyasi, 29.11.1985 yil;

-«Sudyalar odob-axloqiga oid Bangalor tamoyillari». 26.11. 2002y.

-«Osiyo mintaqasida sud hokimiyatini mustaqilligining tamoyillari»,
Pekin 19.08.1995 yil;

-«Inson huqulari bo'yicha Yevropa sudi, Sudyalik etikasi
to'g'risida»gi Rezolyusiya 23.06.2008 yil;

-«Sudyalar mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risida» Yevropa
Kengshi vazirliklar qo'mitasining tavsiyalari. 13.10.1994 yil;

-«Sudyalar mavqeyi to'g'risida» Yevropa xartiyasi 10.07.1998 yil;

-«Sudyalar Buyuk Xartiyasi» 2010 yil.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning izchil amalga oshirilishi davomida Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi va keyingi besh yillikda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan bir qancha vazifalar belgilandi.

Taraqqiyot strategiyasining 15-maqsadida Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish maqsad qilib olindi.

Shuningdek, ushbu maqsadlar asosida Ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirish, «Xabeas korpus» institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish, Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv tamoyillarini ro'yobga chiqarish, Sudlar tizimida «yagona darcha» tamoyilini keng

joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqliligidan qat'iy nazar, qabul qilish va vakolatli sudga yuborish hamda muayyan ish doirasida barcha huquqiy oqibatlarni hal qilishni ta'minlash tizimini joriy etish, Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish, Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashda sudyalarning hamjamiyati organlarining rolini yanada oshirish, sudyalarning o'zini o'zi boshqarish tamoyilini keng joriy etish hamda sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishning oldini olish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarni yaratish, sudyalarning korpusini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud tizimidagi rahbarlik lavozimlariga tayinlashda saylanish va hisobdorlik kabi demokratik tamoyillarni joriy etish, sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish ishlarini olib borilishi bo'yicha keng ko'lamli ishlarning amalga oshirilishi oqibatida amalga oshirilayotgan ishlar o'zining samarasini bermasdan qolmaydi. Albatta bu boradagi ishlar inson manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytish lozimki, odil sudlov – davlat faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri, fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish sud yordamida himoya qilish, ularni ijtimoiy himoyalashning maxsus yuridik shaklidir.

Har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, xalqaro huquq normalaridan qati nazar, sudyalarning va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy holatini, protsessual qonun hujjatlarini milliy doirada mustahkamlab kelgan.

Binobarin, bu ish faqatgina, milliy qonunchilik vakolatiga tegishli, deb hisoblangan.

1966-yilning dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro Pakt qoidalarida ham inson huquqlarini himoya qilishda mustaqil sud tizimi muhim o‘rin tutishi alohida tarzda belgilab qo‘yildi. Mamlakatimiz parlamenti tomonidan 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qilingan mazkur hujjatning 14-moddasida barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida tengligi hamda har bir kishi unga qo‘yilayotgan jinoiy ayblov ko‘rib chiqilayotganda yoki biror-bir fuqarolik jarayonida uning huquq va burchlari aniqlanayotganida qonunga muvofiq tuzilgan nufuzli, mustaqil va xolis sud tomonidan mazkur ish adolatli hamda ochiq holda ko‘rib chiqilishi huquqiga ega ekanligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrda qabul qilingan “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6127-sonli Farmonining qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash, malakali kadrlarni tanlash, sudyalik kasbiga tayyorlash va tayinlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Sud hokimiyatining mustaqilligi prinsipining ahamiyati haqida ta’kidlar ekanmiz, hokimiyatning to‘laqonli mustaqil tarmog‘i sifatida sudlarning faqat qonunga bo‘ysunishini ta’minlash alohida diqqatga sazavorligi ham bejiz emas.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasida qonuniylik, 9-moddasida sudyalarning mustaqilligi, 10-

moddasida sud hujjatlarining majburiyligi, 11-moddasida qonun va sud oldidagi tenglik, 12-moddasida sud ishlarini yuritishning oshkoraligi, 13-moddasida sud ishlari yuritiladigan til, 14-moddasida sud himoyasida bo'lish huquqi, 15-moddasida odil sudlovni amalga oshirishda malakali yuridik yordam, 16-moddasida aybsizlik prezumpsiyasi, 17-moddasida Sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi prinsip darajasida belgilangan.

Albatta bu boradagi qoidalarining qonun darajasida belgilanishi O'zbekiston Respublikasida odil sudlovning amalga oshirilishini taminlashga xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Odil sudlovni amalga oshirishda qayd etish joizki, qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, axolining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi. Sudyalarning mustaqilligi va qonunga bo'ysunishi, ularning odil sudlov borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi, qolaversa, sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan mustaqil tarzda ish yuritishi mamlakatimizda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarda o'zining teran ifodasini topgan.

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshirishi mumkinligini anglatadi. Mazkur prinsipga muvofiq, suddan boshqa biron-bir davlat organi biron-bir shaxsni aybdor deb topishi va jinoyat uchun unga jazo tayinlashi mumkin emas.

Bu prinsip jahonning ko'pgina davlatlarida amal qiladi. U sud organlarining mustaqilligini anglatadigan hokimiyat bo'linishi prinsipi bilan uyg'un va uzviydir. Sud hokimiyatining mustaqilligi sudyalarni almashtirib bo'lmashligi, ularning shaxsiy daxlsizligi, sudyalar o'zlari qabul qilgan qarorlar uchun faqat qonun oldida javob berishi, favqulodda sudlar tuzilishiga yo'l qo'yilmasligi, sudlar faqat budjetdan moliyalashtirilishi singari konstitutsiyaviy normalar bilan kafolatlanadi.

Odil sudlov organlari shaxsning huquqlari himoya qilinishini konstitutsiyaviy, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish orqali amalga oshiradi. Har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari (qarorlari) bilan o'z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy kafolatlarni ta'minlash vazifasini hal qilish sud hokimiyatini har tomonlama mustahkamlashni hamda sud-huquq tizimini isloh etish konsepsiyasi qoidalarini amalga oshirishni taqozo etadi, chunki faqat kuchli va mustaqil sud hokimiyati odil sudlov organi sifatida huquqiy davlatni shakllantirish, demokratiyani rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarni, shaxs huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish uchun imkoniyat yaratishga qodir.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati davlat hokimiyatining ajralmas qismi bo'lib, uning samarali faoliyat yuritishi mamlakatdagi huquqiy va demokratik islohotlarning asosiy omillaridan biridir. Sudlar faqat qonunlarga bo'ysunadi, shuningdek, sud hokimiyatining mustaqilligi, qonun oldida tenglik, va sud hujjatlarining majburiyligi kabi prinsiplar mustahkamlangan. Bular fuqarolar

huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi va sud tizimining islohotlar orqali yanada takomillashishini ta'minlaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy hujjatlar sud hokimiyatining mustahkamlanishini kafolatlashni davom ettirmoqda. Xalqaro huquq normalari va BMT tomonidan qabul qilingan rezolyutsiyalar ham sudlarning mustaqilligi va odil sudlovni ta'minlashda yordam bermoqda. Shu bilan birga, sud hokimiyatining samarali ishlashi, sudyalarning mustaqilligi, va fuqarolarning sudga erkin kirishi tamoyillari rivojlanmoqda.

Tavsiyalar:

1. **Sud hokimiyatining yanada mustahkamlanishi:** Sud tizimining mustaqilligini ta'minlash uchun sudyalor o'rtasida o'zaro bahs-munozaralar va faoliyatlar mustahkamlanishi, hamda sud tizimidagi ishlarni samarali yuritishga imkon beradigan yangi qonunlar qabul qilinishi lozim.
2. **Fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta'minlash:** Sud tizimiga murojaat qilish uchun fuqarolarni huquqiy madaniyat bilan tarbiyalash, ayniqsa sudga murojaat qilish huquqi va uning afzalliklari haqida kengroq ma'lumot berish zarur.
3. **Sud tizimi raqamlashtirishni davom ettirish:** Sud jarayonlarini raqamlashtirish, elektron ariza topshirish va sud qarorlarini onlayn tarzda olishni takomillashtirish orqali byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirish.
4. **Yagona darcha tizimini kengaytirish:** Sudga murojaat qilishni yanada osonlashtirish uchun "yagona darcha" tizimini kengaytirish, barcha huquqiy masalalarni bitta muassasa orqali hal qilishni ta'minlash.
5. **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:** Sud tizimining islohotlarida xalqaro huquq normalaridan to'liq foydalanish, shu jumladan

xalqaro sudlar va tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, O‘zbekiston sud tizimini global miqyosda yanada samarali qilishga yordam beradi.

Shu tarzda, O‘zbekiston sud tizimining islohoti va sud hokimiyatining mustahkamlanishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi qonuni 28.07.2021.
- 2) Konstitutsiyaviy huquq –O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020.
- 3) Chuboyeva Ozodaxon PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) -Copenhagen: 2022. ISSUE 13 –226 p. 94-99.
- 4) Chuboyeva Ozodaxon Journal of Pedagogical Inventions and Practices. ISSN NO: 2770-2367.
- 5) <https://zienjournals.com>
- 6) Chuboyeva Ozodaxon Quvonchbekovna. The importance of “Kazilik adabi” in Abu Bakr Kasani’s work “Badoi-us-sanoe”. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 81 published January 30, 2020.
- 7) <http://www.infostrategy.uz>
- 8) Lex.UZ internet saxifasi.
- 9) E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2020.-B.591.
- 10) Kostetskiy V.A., Asadova E.S. Konstitutsiyaviy huquq asoslari. –T.: G‘afur G‘ulom, 2001. –B.89.